

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **14254,2 mlrd. so'mni**, o'sish **1,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-101,9 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **11,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **13,6%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 14254,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,0 % tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 28,2 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichasanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4015,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 28,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9414,3 mlrd.so'mni yoki jamiishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 66,0 % ni tashkil etdi.

Yanvar-avgust oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Portlandsement, ming tonna

2452,2



2456,0

100,2

Shifer, tonna

3349,20



19796,0

591,1

Ammoniy nitrat, ming tonna

127,29



143,68

112,9

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------------	--	-------------------------------------	----------------------------

Temir beton, ming tonna

19,266



34,596

179,6

Paxta tolasi, ming tonna

22,585



18,814

83,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 771,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1641,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 101,9 %, jami sanoatdagi ulushi esa 11,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 82,9 % ulushini), Karmana (8,4 %), Qiziltepa (2,8 %), Xatirchi (2,0 %), Navbahor (1,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Shu bilan birga eng kam ulush Tomdi (0,1 %), Konimex (0,3 %), Uchquduq (0,4 %), Nurota (0,7 %) tumanlari va Zarafshon (0,9 %) shahriga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari , %



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziltepa tumani (2017 yilning yanvar-avgust oylariqa nisbatan 108,4 %), Karmana (107,2 %), Konimex (101,2) tumanlari va Zarafshon (106,7 %), Navoiy (100,8 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishi keskin faollashdi. Natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jaming sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 13,6 % tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy (3,2 %) va Zarafshon (75,2%), shaharlarida, Karmana (43,7 %), Navbahor (75,9 %), Xatirchi (81,9 %), Qiziltepa (82,4 %), Nurota (98,7 %), Uchquduq (99,9 %), Konimex (100,0 %), Tomdi (100,0 %), tumanlari hissaga to`g`ri keldi.



Bugungi kunda viloyatimizda 1685 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 527 tasi Navoiy va 95 tasi Zarafshon shaharlarida, 298 tasi Karmana, 242 tasi Nurota, 185 tasi Qiziltepa, 117 tasi Xatirchi, 82 tasi Navbahor, 68 tasi Uchquduq, 38 tasi Tomdi, 33 tasi Konimex tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 sentabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida viloyatimizda 256 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 21,5 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.